



**«TASDIQLAYMAN»**  
**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB**  
**Kredit bosh direktori:**  
**B.Mullajanov**

«25» may 2026 y.  
№ 389

**Garovga taqdim qilinayotgan, garovdagi va bank balansidagi mol-mulklarning  
bozor qiymatini joyiga borgan holda baholash xizmati**

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	<b>Buyurtmachi nomi</b>	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB.
2.	<b>Buyurtmachi manzili</b>	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A uy.
3.	<b>Tanlash savdolarini o‘tkazish uchun asos</b>	O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil yetish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Kreditlarni ma‘qullash departamentining 2026-yil 25-maydagi IF-2731- sonli Bildirishnomasi.
4.	<b>Moliyalashtirish manbai</b>	“Buyurtmachi”ning o‘z mablag‘lari.
5.	<b>Bajaruvchi</b>	Mazkur xizmatlarni amalga oshiruvchi tashkilot.
6.	<b>Bank xodimlari</b>	“Buyurtmachi”ning hududlardagi bank xizmatlari ofisi va markazlari xodimlari.
7.	<b>Xizmat turi</b>	“Garovga taqdim etilayotgan, garovdagi va bank balansidagi mol-mulklarni baholash” xizmati – “Buyurtmachi”ning mijozi tomonidan kredit ta‘minoti uchun garovga taqdim etilayotgan, garovdagi va bank balansidagi mol-mulklarning bozor bahosini joyiga borgan holda o‘rganib, baholash hisobotini taqdim etish.
8.	<b>Xizmatdan foydalanish usullari</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. “Bajaruvchi”ning dasturiy ta‘minoti (veb-havolasi) orqali;</li> <li>2. “Buyurtmachi” va “Bajaruvchi”ning axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro “API” (Application Programming Interface) integratsiyasini amalga oshirish orqali</li> </ol>
8.1	<b>Dasturiy ta‘minot (veb-havola) orqali xizmatdan foydalanish ketma-ketligi</b>	<p><b>8.1.1</b> Bank hodimi jahon internet tarmog‘ining “web-brauzer”laridan foydalangan holda “Bajaruvchi” tomonidan berilgan maxsus “login” va “parol” orqali dasturiy ta‘minot (veb-xavola)ga kiradi.</p> <p>Buyurtma yaratish uchun dasturiy ta‘minot ichidan mazkur xizmat va mol-mulk turini tanlagan holda “Qo‘shish” tugmasini bosadi.</p> <p>“Qo‘shish” tugmasi bosilganda yangi oyna paydo bo‘ladi.</p> <p>Ushbu oyunga qarz oluvchi (mijoz) va garovga qo‘yuvchining STIR / JSHSHIR hamda telefon raqamlarini, shuningdek bank tizimlaridan birini tanlagan holda kredit buyurtma raqami bilan birga dasturiy ta‘minotga kiritadi.</p> <p><b>8.1.2</b> Mol-mulk turi va garovga qo‘yuvchining huquqiy maqomidan kelib chiqib quyidagi hujjatlarning elektron shaklini mazkur dasturiy ta‘minotga biriktiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Garovga qo‘yuvchining pasport nusxasi (jismoniy shaxslar uchun);</li> </ul>

		<ul style="list-style-type: none"> <li>- Garovga qo'yuvchining guvohnomasi (yuridik shaxslar uchun);</li> <li>- Mol-mulk ko'chmas mulk yoki aralash mol-mulk bo'lgan taqdirda kadastr hujjatlari (ko'chirma va kadastr pasporti);</li> <li>- Mol-mulk avtotransport vositasi va maxsus texnika bo'lgan taqdirda ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma (texnik pasport, texnik talon);</li> <li>- Mol-mulk uskuna bo'lgan taqdirda, uskunaning pasporti va BYuD (IM-40 rejim) hamda hisob-faktura;</li> <li>- Mol-mulk bo'yicha egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.</li> </ul> <p><b>8.1.3</b> Bank xodimi yuqorida ko'rsatilgan amallarni bajargandan so'ng "Bajaruvchi"ga baholash hisobotini olish yuzasidan buyurtmani elektron ravishda yuboradi.</p> <p><b>8.1.4</b> "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"dan kelib tushgan buyurtmani qabul qilib oladi.</p> <p><b>8.1.5</b> "Bajaruvchi"ning mutaxassislari garovga qo'yuvchi (qarz oluvchi) bilan birgalikda joyiga borgan holda mol-mulkni ko'zdan kechiradi hamda o'rganadi.</p> <p><b>8.1.6</b> "Bajaruvchi" mutaxassislari "Android" ilovasiga mol-mulkning rasmlari hamda geolokatsiyasini identifikatsiya qiladi.</p> <p><b>8.1.7</b> "Bajaruvchi" "Android" ilovasi orqali birlashtirilgan foto-sur'atlar hamda geolokatsiyaga muvofiq mol-mulkni o'rganadi, baholash hisoboti (xulosa)ni "QR-kod" bilan himoyalangan holda elektron ravishda dasturiy ta'minot orqali "Buyurtmachi"ga qaytaradi.</p>
<p style="text-align: center;"><b>8.2</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>API (Application Programming Interface) orqali xizmatdan foydalanish ketma-ketligi</b></p>	<p><b>8.2.1</b> Bank hodimi qarz oluvchi (mijoz) va garovga qo'yuvchini tegishli hujjatlarga muvofiq o'z tizimida identifikatsiya qiladi. <i>(Garovdagi va bank balansidagi mol-mulklar uchun ushbu amal mustasno qilinadi)</i></p> <p>Shundan so'ng tizimga kirib "Garovga taqdim etilayotgan, garovdagi va bank balansidagi mol-mulklarni baholash" xizmatini tanlagan holda buyurtma yaratish uchun "Qo'shish" tugmasini bosadi.</p> <p>"Qo'shish" tugmasi bosilgandan so'ng yangi oyna paydo bo'ladi.</p> <p>Ushbu oynaga qarz oluvchi (mijoz) va garovga qo'yuvchini STIR / JSHSHIR raqamlarini, shuningdek mol-mulk turidan kelib chiqib tegishli ma'lumotlarni kiritadi.</p> <p><b>8.2.2</b> Mol-mulk turi va garovga qo'yuvchining huquqiy maqomidan kelib chiqib quyidagi hujjatlarning elektron shaklini mazkur tizimga birlashtiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Garovga qo'yuvchining pasport nusxasi (jismoniy shaxslar uchun);</li> <li>- Garovga qo'yuvchining guvohnomasi (yuridik shaxslar uchun);</li> <li>- Mol-mulk ko'chmas mulk yoki aralash mol-mulk bo'lgan taqdirda kadastr hujjatlari (ko'chirma va kadastr pasporti);</li> <li>- Mol-mulk avtotransport vositasi va maxsus texnika bo'lgan taqdirda ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma (texnik pasport, texnik talon);</li> <li>- Mol-mulk uskuna bo'lgan taqdirda, uskunaning pasporti va BYuD (IM-40 rejim), hisob-faktura;</li> <li>- Mol-mulk bo'yicha egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.</li> </ul> <p><b>8.2.3</b> Bank xodimi yuqorida ko'rsatilgan amallarni bajargandan so'ng "Bajaruvchi"ga baholash hisobotini olish yuzasidan buyurtmani "API" orqali yuboradi.</p> <p><b>8.2.4</b> "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"dan kelib tushgan buyurtmani qabul qilib oladi.</p> <p><b>8.2.5</b> "Bajaruvchi"ning mutaxassislari garovga qo'yuvchi (qarz oluvchi) bilan birgalikda joyiga chiqqan holda mol-mulkni ko'zdan kechiradi hamda o'rganadi.</p> <p><b>8.2.6</b> "Bajaruvchi"ning mutaxassislari "Android" ilovasiga mol-mulkning</p>

		<p>rasmlari hamda geolokatsiyasini identifikatsiya qiladi.</p> <p><b>8.2.7</b> “Bajaruvchi” “Android” ilovasi orqali biriktirilgan foto-sur’atlar hamda geolokatsiyaga muvofiq mol-mulkni o’rganadi, baholash hisoboti (xulosa)ni “QR-kod” bilan himoyalangan holda elektron ravishda “API” orqali “Buyurtmachi”ga qaytaradi.</p>
9.	<b>Xizmatni buyurtmaga muvofiq bajarish muddati</b>	<p>“Bajaruvchi” xizmat ko’rsatish usullaridan (vab-xavola / API integratsiya) qat’iy nazar buyurtma kelib tushgan kundan boshlab <b>2 (ikki) bank kuni</b> ichida baholash hisobotini “Buyurtmachi”ning shaxsiy kabinetiga elektron ravishda yuboradi.</p>
10.	<b>Xizmatga qo’yilgan talablar</b>	<p><b>10.1</b> Mazkur xizmatlarni amalga oshirish bo’yicha “Bajaruvchi”da O’zbekiston respublikasining barcha viloyat va tumanlarida filiallari mavjud bo’lishi, shuningdek ushbu filiallar malakali va tajribali ekspertlarga ega bo’lishi lozim.</p> <p><b>10.2</b> Xizmatlar mazkur texnik topshiriqning <b>“9” bandida</b> ko’rsatilgan muddatda bajarishi;</p> <p><b>10.3</b> “Bajaruvchi” mazkur xizmat bo’yicha so’rovlarni dasturiy ta’minot (vab-xavola) va “API” orqali qabul qilish, shuningdek “QR-kod” bilan himoyalangan baholash hisoboti (xulosasi)ni elektron ravishda taqdim etish;</p> <p><b>10.4</b> “Bajaruvchi” o’z mutaxassislarini “Android” ilovasi bilan to’liq ta’minlagan bo’lishi;</p> <p><b>10.5</b> “Bajaruvchi” baholash hisobotini shakllantirishda hamda ushbu xizmatning asosli ravishda tuzilishi uchun ko’chmas mulk hamda aralash mol-mulkni o’rganish yuzasidan o’z tizimini “Kadastr” agentligiga integratsiya qilgan bo’lishi;</p> <p><b>10.6</b> “Buyurtmachi”ning barcha xodimlarini dasturiy ta’minot (vab-xavola)dan foydalanishlari uchun ularning har birini “login” va “parol” ta’minlash. (Yangi “login” va “parol” ochish uchun dasturiy ta’minot yoki ushbu xizmatni qo’llab-quvvatlash bo’yicha yoritilgan aloqa kanallari (telegramm bot va x.k.) orqali “Buyurtmachi” va uning filiallari tomonidan murojaat yo’llanadi).</p> <p><b>10.7</b> “Buyurtmachi”ning so’rovi va qarz oluvchi (mijoz)ning buyurtmasi asosida “Bajaruvchi” tomonidan taqdim etilgan baholash hisobotining haqiqiyliги to’g’risidagi hujjatlar uchinchi shaxslar shu jumladan, ijro etuvchi hokimiyat organlari, hakamlik sudi va prokuratura oldida himoyalangan bo’lishi lozim.</p>
11.	<b>Dasturiy ta’minot (vab-xavola)ga qo’yilgan talablar</b>	<p>Xizmat ko’rsatish bo’yicha kelib tushgan buyurtmalar asosida bajarilgan ishlarni filiallar hamda obyektlar (mol-mulklar) kesimida tahlil qilish uchun “Hisobot” bo’limi tashkil etilishi lozim.</p> <p>Mazkur bo’limdan faqatgina “Buyurtmachi”ning Bosh ofis xodimlari foydalanish huquqiga ega bo’ladilar. Hisobotda bajarilgan ishlar to’g’risidagi ma’lumotlar kunlik va oylik davrlar kesimida shakllantirilishi, shuningdek, tegishli mol-mulklar haqidagi barcha ko’rsatkichlarni o’z ichiga olishi shart.</p>
12.	<b>Xizmat ko’rsatish muddati</b>	<p>“Buyurtmachi” va “Bajaruvchi” o’rtasida tuzilgan shartnoma bo’yicha tomonlarning majburiyatlari to’liq bajarilgunga qadar amal qiladi.</p>
13.	<b>Tariflar narxiga qo’yilgan talablar</b>	<p>Har bir tarif bo’yicha bajarilgan xizmatning narxi (QQS bilan) tanlov yakunlari bo’yicha boshlang’ich narxning kamayishiga mutanosib ravishda kamayadi va g’olib bilan tuziladigan shartnomada aks ettiriladi.</p>

14.	<p><b>Xizmat tariflari:</b> (Baholash obyekti (mol-mulk)ning turi, soni va hajmidan kelib chiqqan holda)</p>	<p>Baholash obyektlari kv.metr bo'yicha hisoblanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1-300 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 301-600 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 601-1 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 1 001- 1 500 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 1 501- 2 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 2 001- 2 500 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 2 501- 3 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 3 001 - 3 500 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 3 501 - 4 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 4 001 - 4 500 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 4 501 - 5 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 5 000 - 5 500 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 5 501 - 6 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 6 001 - 6 500 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- 6 501 - 10 000 kv.metr gacha – _____;</li> <li>- Har bir 1 000 kv.metr uchun – _____;</li> <li>- Uskuna (liniya)ni har bir turi uchun (mustaqil obyekt sifatida) – _____;</li> <li>- Yerga egalik qilish huquqi – _____;</li> <li>- Avtotransport va maxsus texnikaning 1 (bir) birligi uchun – _____;</li> <li>- Ko'l, issiqxona va bog'lar har bir 10 000 kv.metr uchun – _____.</li> </ul>
15.	<p><b>Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov tartibi</b></p>	<p>Tariflar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar shartnoma rasmiylashtirilganidan so'ng amalga oshiriladi. Oldindan to'lov amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Bajarilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotnoma (AKT-Dalolatnoma) va hisob-faktura "Buyurtmachi" hamda "Bajaruvchi" o'rtasida ularning mas'ul xodimlari tomonidan imzolanganidan so'ng har oyning 15-kuniga qadar to'lov amalga oshiriladi. Bunda, "Bajaruvchi" tomonidan yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar har oyning 5-kuniga qadar topshirilishi shart.</p>
16.	<p><b>Xizmatni ishga tushirish vaqti</b></p>	<p>"Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rtasida shartnoma imzolanganidan so'ng 15 (o'n besh) bank kuni ichida ishga tushiriladi.</p>

kelishuvchilar: O'.Meyliyev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=bA31sB41&id=d38ec6e0-2f13-42d8-9065-78ed1c207506>